

## MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA TAYYORLOV GURUH BOLALARINI RAVON NUTQINI O'STIRISHGA O'RGATISH YO'LLARI

**Xolmurodova Farog‘at Jumanazarovna**

UrDU “ Ta’lim va tarbiya nazaryasi va metodikasi” kafedrasи

Maktabgacha ta’lim mutaxasisligi 2- bosqich magistranti

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni ravon nutqqa o‘rgatish yo‘llari haqida ma’lumotlar berib o‘tilgan. Shuningdek nutq turlariga, tarbiyachi- pedagogning nutqi qanday bo‘lishi kerakligi haqida ham to‘xtalib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** ravon nutq, diologik nutq, monologik nutq, ritm, temp, diksiya, nutq.

Barchamizga ma’lumki nutq ikki xil turga bo‘linadi.

1. Dialogik nutq 2. Monologik nutq. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida esa o‘qitish asosan ikki shaklda amalga oshiriladi.

Bular a) erkin nutqiy muloqot; b) maxsus mashg‘ulotlardir.

Dialog ko‘proq erkin nutqiy muloqotda paydo bo‘ladi va u bolalar lug‘atini boyitish va shu bilan birgalikda talaffuzga doir grammatik ko‘nikmalarni tabiiy ravishda rivojlantirish bazasi va ravon nutq ko‘nikmalariga ega bo‘lish bazasi sanaladi.

Monologik nutqqa to‘xtaladigan bo‘lsak, bolalarda monologik nutqni muntazam o‘qitish taxminan 5 yoshdan boshlanadi. Ammo bunga tayyorgarlik bola hayotining ikkinchi yilida ya’ni bolalarni o‘qish va sanoq she’rlarni yodlash jarayonida amalga oshadi. Maktabgacha yoshdagи bolalar 4 yoshdan boshlab monologning tavsiflash va bayon qilish turlarini qo‘llashga, 7 yoshdan boshlab esa qisqa mulohaza yuritishga ega bo‘lishadi. Maktabgacha yoshdagи tayyorlov guruhi bolalarni dialogik muloqoti negizida nutqning yangi shakli – monologik nutq tug‘iladi. Bunda bolaninig o‘z shaxsiy fikrlari, his tuyg‘ulari, atrof muxit haqidagi bilimlarini o‘rtoqlashish istagi natijasida vujudga keladi. Bunda nutq qisqa hikoya shaklida bo‘ladi. Hikoyada albatta bolani lol qoldiradigan va uni hayajonga solagan biror bir voqeа – hodisa aks etadi. Ravon nutqni rivojlantirishda maktabgacha yoshdagи bolalarga nisbatan nutqning ikki shaklini ya’ni dialogik va monologik shaklini ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Dialog bu - ikki yoki undan ortiq so‘zlovchining biror bir vaziyat bilan bog‘liq mavzudagi fikrlar almashinuvlidir. Dialogik nutqda, yuklamalardan foydalanilgan

holda, sintaksis jihatdan sodda bo‘lgan darak, undov, so‘roq gaplarning barcha turlari bayon etiladi. Til vositalari esa imo ishoralar, mimika bilan kuchaytiriladi. Tarbiyachi bolalar bilan suhbat jarayonida shunday vaziyatni yaratishi kerakki, unda bolalar turli hil til vositalaridan foydalangan holda dialog tuzish – so‘rash, javob berish, tushuntirish, iltimos qilish va boshqa vaziyatlarga duch kelsin.

Ushbu vaziyat orqali bolaning oiladagi, maktabgacha ta’lim tashkilotidagi hayoti, uning do‘satlari va kattalar bilan munosabatlari, qiziqishlari va ta’ssurotlari bilan bo‘g‘liq turli hil mavzularda suxbat o‘tkazishdan foydalansin. Aynan dialogda suxbatdoshni tinglash, savollar berish, mazmundan kelib chiqqan holda javob berish qobiliyati rivojlanadi. Tengdoshlar bilan dialogik muloqotni yo‘lga qo‘yish uchun kooperativ tusdagi faoliyat muhim ahamiyat kasb etishi lozim. Mazkur faoliyat esa asta-sekinlik bilan rivojlanadi. Dastlab bolalar ro‘y berayotgan hodisalarni sharxlabgina qolmasdan, yaqindan turgan holda harakat qiladilar. Bolalar o‘rtasidagi muloqot asosan amaliy xususiyatga egaligi bilan ajralib turadi. Dialog ko‘pincha shunday shaklda olib boriladiki, bunda bola sheringining qisqa savollariga munosabatini nonutqiy vositalar yordamida javob beradi. Dialog muloqotini yo‘lga qo‘yish uchun dastavval stol o‘ynlari chop etilgan o‘ynlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Juft bo‘lib o‘ynashda bolalar dialog hamkorlik qilish usullarini ya’ni navbatga rioya qilish, bir biriga xushmomulalik bilan murojaat qilish kabi fazilatlarni o‘rganib oladilar. Bundan tashqari bolalar o‘z nuqtai nazarini dalil-u isbotlar bilan himoya qilish, fikirlarni sherigi bilan muvofiqlashtirishni o‘rganadilar. Monologik nutqni rivojlantirish esa bolalarda keng va yoyilgan fikr tuzishni o‘qitishda tarbiyachi ularda matn tuzilmasi haqidagi eng oddiy bilimlarni, gap bilan fikrning tarkibiy qismlari o‘rtasidagi aloqalar haqidagi tasavvurni shakillantirishi muhum sanaladi. Har qanday tugallangan fikrda iboralarni bog‘lashning keng tarqalgan variantlari bo‘ladi. Gaplarni bog‘lashning eng keng tarqalgan usuli – bu zanjirli aloqadir. Olmosh, leksik takrorlash, sinonimik jihatdan o‘rin almashish mazkur aloqaning asosiy vositasi sanaladi. Zero zanjirli aloqa nutqni yanada moslashuvchan va rang barang qiladi., chunki bola bu usulni egallar ekan, bir so‘zni qayta takrorlashdan qochadi. Pedagog esa bolalarga gaplarni paralel ravishda bog‘lashni o‘rgatishi zarur sanalib, bunda gaplar bir biriga ulanmaydi, balki taqqoslanadi yoki hatto qarama qarshi qo‘yiladi. Ravon fikrni tashkil etishda intonatsiya katta rol o‘ynaydi, shuning uchun ham ayrim gaplar intonatsiyadan to‘g‘ri foydalanish ko‘nikmasini shakllantirish matnning takroriy birligi va mazmuman tugallanganligini bayon etishga yordam beradi. Kattalar bilan bolalarning birgalikdagi so‘z ijodkorligi monologik nutqni rivojlantirishning asosiy sharti sanaladi. Endigina besh yoshga to‘lgan bolalar tanish ertaklarni hikoya qilib

berish, voqealar to‘qish va bundan tashqari shaxsiy tajribadan so‘zlab berishga qiziqishni namoyon qiladilar. Pedagogning sekingina hikoya mazmunini, rejasini, voqealarning ehtimoliy rivojini, so‘z shaklini aytib qo‘yishi so‘z ijodkorligini muhim ahamiyat kasb etadi. Nutqning shoshqaloqligi, tushunarsizligi, bir ohangdaligi, ovozning kuchliligi, ayrim tovushlar so‘zlarni noaniq talaffuz qilish kabi nuqsonlar sezilmasdan qoladi. Nutqda aniqlangan kamchiliklarni tarbiyachi maxsus daftarga qayt etib borishi, so‘ngra reja ishlab chiqadi va ularni bartaraf etishga doir ishlarni amalgaloshirishi zarur. Bolalar aniq va tushunarli so‘zlaydigan, iboralar, so‘zlar va har bir tovushni alohida alohida aniq talaffuz etayotgan ya’ni yaxshi diksiyaga ega bo‘lgan pedagog yordamida ona tilidagi tovushlarni muvofaqiyatl ravishda o‘zlashtiradilar. Ko‘pincha pedagoglarning talaffuzi biroz noaniq va tushunarsiz bo‘lib qoladi, ular tovushlar va so‘zlarni og‘izni yetarli darajada ochmasdan talaffuz qiladilar ayrim tovushlar esa yutib yuborladi, undoshlar tushunarsiz talaffuz etiladi. Buning natijasida esa bunday nutqni tinglash davomida tez toliqib qoladilar, boshqa tomonlarga qaraydilar, chalg‘iy boshlaydilar, keyinroq esa umuman tinglamay qo‘yadilar. Nutqda hissiy fikrlarning eng nozik qirralarini ham ifodalash mumkun. Bunga nafaqat tegishli so‘zlar yordamida balki ifodalilikning intonatsion vositalari, ovoz kuchi, sur’ati, mantiqiy urg‘usi, pauza, ritm, membr, ohangdan to‘g‘ri foydalanish tufayli erishiladi. Ushbu vositalardan foydalangan holda tarbiyachi tomonidan o‘qib berilgan she’rlar, ertaklar, hikoyalar, bolalarga ularning mazmunini yaxshi tushunish o‘z tilining qudrati va go‘zalligini his qilish imkonini beradi. Bir hil ohangdagagi nutq kichik tinglovchilarni toliqtirib qo‘yadi, matn mazmuniga bo‘lgan qiziqishni susaytiradi. Tarbiyachining nutqi emotsiyal to‘liq, intonatsiyalarga boy, yetarli darajada baland va tezligi bir maromda bo‘lishi lozim. Bolalar bilan muloqotda tovushlarni noto‘g‘ri talaffuz etib bo‘lmanidek nutqning shoshqaloqligiga ham yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi. Agarda nutq biroz ohista sur’atda davom etsa u yaxshi qabul qilinadi. Bunday sur’at esa nutqning aniqligini oshirishi mumkin va aksincha bo‘lsa tezlashtirilgan nutq qabul qilishni qiyinlashtiriladi. Bolalar uchun mo‘ljallangan ertaklar, hikoyalar, she’rlarni badiiy so‘z ustalari odatda, og‘zaki nutqqa qaraganda biroz sekin sur’atda o‘qiydilar. Bu esa o‘z navbatida bolalarga sekinlashtirilgan nutqni qabul qilish orqali uning mazmunini kuzatish, matnni eslab qolish imkonini beradi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

- 1.Qodirova F.R. Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. T.: “ISTIQLOL, 2006y. O‘quv qo‘llanma.
2. D.R. Babayeva “Nutq o‘stirish metodikasi” T.: Fan va texnologiyalar 2009yil. O‘quv qo‘llanma.
3. D.R. Babayeva “Nutq o‘stirish nazariyasi va metodikasi” T.: “Barkamol avlod fayz” 2018y. Darslik.
4. D. R. Babayeva “Nutq o‘stirish nazariyasi va metodikasu” T.: TDPU 2017yil. O‘quv qo‘llanma.
5. Q.S.Shodiyeva o‘rta guruh bolalari nutqini o‘stirish” T.:” O‘qituvchi” 1993y. O‘quv qo‘llanma.
6. “Ilk qadam” dasturi, T 2018-y.